

UMUMTA'LIM MAKTABLARI MUSIQA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Davronova G.M.,

SamDPI dotsenti

Usarova M.,

SamDPI 2-bosqich magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932130>

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari, ularning pedagogik, psixologik hamda estetik jihatdan samaradorligini ta'minlash masalalari yoritilgan.

Maqolada innovatsion texnologiyalar tushunchasining mazmuni, zamonaviy musiqa ta'limi tizimida ularning o'rni va ta'siri, shuningdek, o'qituvchining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish zarurati asoslab beriladi.

Tadqiqotda musiqa darslarini tashkil etishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT), multimedia vositalari, raqamli ta'lim vositalari asosidagi o'quv modellardan foydalanishning afzalliklari tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada innovatsion texnologiyalar yordamida o'quvchilarda musiqiy eshituv, ijodiy fikrlash, notalarni idrok etish, vokal va ritmik ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Natijada, maqola umumta'lim maktablari musiqa darslarida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ilmiy asoslarini belgilash, o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda o'quvchilarning musiqiy savodxonligini interaktiv vositalar yordamida oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar; musiqa ta'limi, interaktiv metodlar; AKT, raqamli pedagogika, musiqa darsi, individuallashtirish, ijodiy faoliyat, multimedia vositalari, ta'lim sifati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются научно-теоретические основы применения инновационных технологий в процессе музыкального образования в общеобразовательных школах, а также вопросы обеспечения их педагогической, психологической и эстетической эффективности. В работе раскрывается сущность понятия инновационные технологии, их роль и влияние в современной системе музыкального образования, обосновывается необходимость развития цифровой компетентности учителя музыки.

В исследовании анализируются преимущества использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), мультимедийных средств и цифровых образовательных моделей при организации музыкальных уроков. Также показаны возможности развития у учащихся музыкального слуха, творческого мышления, восприятия нот, вокальных и ритмических навыков с помощью инновационных технологий.

В результате статья направлена на определение научных основ внедрения инновационных технологий в музыкальные уроки общеобразовательных школ, разработку методических рекомендаций для учителей и повышение музыкальной грамотности учащихся с помощью интерактивных средств.

Ключевые слова: инновационные технологии, музыкальное образование, интерактивные методы, ИКТ, цифровая педагогика, музыкальный урок, индивидуализация, творческая деятельность, мультимедиа, качество образования.

Abstract. This article explores the scientific and theoretical foundations of applying innovative technologies in the process of music education in general secondary schools, as well as issues related to ensuring their pedagogical, psychological, and aesthetic effectiveness. The concept of innovative technologies is analyzed in terms of its meaning, role, and impact within the modern system of music education. The article also substantiates the need to develop teachers' digital competencies.

The study examines the advantages of using information and communication technologies (ICT), multimedia tools, and digital learning models in organizing music lessons. Furthermore, it highlights the opportunities to develop students' musical hearing, creative thinking, note perception, vocal, and rhythmic skills through innovative technologies.

As a result, the article defines the scientific basis for introducing innovative technologies into music lessons at general schools, develops methodological recommendations for teachers, and aims to enhance students' musical literacy through interactive tools.

Keywords: *innovative technologies, music education, interactive methods, ICT, digital pedagogy, music lesson, individualization, creative activity, multimedia, quality of education.*

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish dolzarb masalaga aylandi. Xususan, umumta'lim maktablarida musiqa darslarini zamon talablari darajasida o'tish uchun yangicha yondashuvlar zarur. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, buyuk kelajakni barpo etishda zamonaviy ta'lim va texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Shu bois, musiqa ta'limida ilg'or metod va innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'quvchilarning estetik tarbiyasini yuksaltirish, ularning ma'naviy-intellektual rivojiga xizmat qiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi va "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son Farmonidagi ustuvor yo'nalishlar bilan uyg'unlashmoqda.

Bugungi kunda ilg'or metod va innovatsion texnologiyalardan foydalanish deganda nima tushiniladi? O'rganishlar natijasida aytish mumkinki, "Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" deganda, o'qitish jarayonini zamon talablari asosida yangicha, samarali, kreativ va raqamli vositalar yordamida tashkil etish nazarda tutiladi. Kengroq qilib yoritadigan bo'lsak, Innovatsion texnologiyalar — bu o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasini oshirishga qaratilgan, ilg'or pedagogik usullarni raqamli vositalar bilan uyg'unlashtiruvchi yangicha ta'lim tizimidir. Ular o'qitishning sifatini oshirish, o'quvchini faol sub'ekt sifatida jalb etish va o'qituvchini fasilitator (yo'naltiruvchi) roliga o'tkazish imkonini beradi.

XXI asrda ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning integratsiyasi barcha fanlar — xususan, musiqa darslari — samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, [8] AKT o'quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytiradi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv aloqani rivojlantiradi hamda bilimni shakllantirishda ko'p sezgili yondashuvni ta'minlaydi.

Musiqa darsi esa estetik tarbiya, ijodkorlik va milliy madaniyatni asrab-avaylashning eng samarali platformasidir.

Bugungi "raqamli avlod" raqamli vositalar bilan o'sib ulg'aygan, shuning uchun darsda interaktiv doskalar, mobil ilovalar va multimedia resurslari o'quvchilarning diqqatini qaratishga imkon beradi. Shu bois, umumta'lim maktablarida, musiqa darslarida innovatsion texnologiyalarni nazariy asosda tadbiq etish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu

nafaqat dars mazmunini boyitadi, balki o'quvchilarda ijodiy fikrlashni, mustaqil o'zlashtirishni va XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Musiqa ta'limida texnologiya integratsiyasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar ushbu sohada pedagogik yondashuvlarning transformatsiyasini qayd etadi.

An'anaviy metodlar (musiqa nazariyasi va cholg'u chalish ko'nikmalariga qaratilgan frontal darslar) o'rnini ta'lim oluvchilar markazli, interaktiv usullar egallamoqda, bunda raqamli texnologiyalar va ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchilarning faolligi oshiriladi. Masalan, interaktiv doskalar yordamida o'qituvchi darsni qiziqarli vizual va audial materiallar bilan boyitishi mumkin – bu esa o'quvchilarning e'tiborini jalb etib, ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha,[7] multimedia va interaktiv dasturlar bir vaqtning o'zida bir necha sezgi organlariga ta'sir ko'rsatib, dars jarayonini monotonlikdan xoli, jonli muhitga aylantiradi. Shu bilan birga, ilg'or maktablarda elektron darsliklar va multimediya ilovalari joriy etilib, ular tarkibiga nota matnlari, audio yozuvlar, interaktiv o'yinlar va mashqlar kiritilmoqda – bularning barchasi raqamli davr o'quvchilari (raqamli avlod) uchun tanish va qulay ta'lim muhitini yaratadi.

Adabiyotlarda qayd etilishicha,[1] ayniqsa 5–7-sinf o'quvchilari kabi o'smir yoshdagilar raqamli texnologiyalar vositasida ta'lim olishga mehr bilan yondashadilar, chunki bu vositalar ularning kundalik raqamli faoliyatiga mos va qiziqarli shaklda bilim olishni ta'minlaydi.

Ushbu maqolada tadqiqot nazariy adabiyotlar tahlili asosida olib borildi. Muallif mavjud ilmiy manbalar (maqolalar, konferentsiya materiallari, dissertatsiyalar) ni o'rganish orqali innovatsion texnologiyalarning musiqa ta'limidagi o'rnini va nazariy asoslarini aniqladi.

Adabiyotlar sharhida esa so'nggi yillarda erishilgan ilmiy natijalar hamda pedagogik nazariyalar tahlil qilindi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maqola sof nazariy yondashuvga ega bo'lib, unda amaliy tajriba yoki eksperimentlar o'tkazilmadi. Biroq, nazariy tahlil davomida jahon va mahalliy tadqiqotlardan olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, ular asosida xulosalar chiqarildi.

Natijalar. Nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 5–7-sinf musiqa darslarida quyidagi innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonini boyitishga xizmat qiladi va ularning har biri ma'lum pedagogik nazariyalarga tayangan holda samarali hisoblanadi:

Interaktiv doskalar (elektron taxa): Interaktiv doska yordamida o'qituvchi darsni multimediya materiallari bilan jonlantirishi, musiqiy mavzularni ko'rgazmali tarzda tushuntirishi va o'quvchilar bilan bevosita interaktiv aloqa o'rnatishi mumkin.

Tadqiqotlarga ko'ra, [3] interaktiv doskalar qo'llanilganda o'quvchilar passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanadilar: ular doskaga chiqib topshiriqlarni bajarishi, musiqiy namunalarga interaktiv javob berishi orqali bilimni o'zlashtirish

jarayonida faol rol o'ynaydi. Interaktiv texnologiya darsni turli ko'rish va eshitish vositalari bilan boyitgani tufayli o'quvchilarning darsga qiziqishi ortib, o'quv motivatsiyasi sezilarli darajada yaxshilanishi kuzatilgan. Shunday qilib, interaktiv doskalar konstruktivistik pedagogika nuqtai nazaridan muhim vosita bo'lib, ular o'quvchini faol ijodkorlikka va mustaqil bilim olishga undaydi.

Mobil ilovalar (smartfon va planshetlar uchun): Mobil ilovalar musiqa ta'limida keng qollanilayotgan innovatsion vositalardan biri bo'lib, ular orqali o'quvchilar darsdan tashqari vaqtda ham mustaqil shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xususan, musiqiy o'yinlar, nazariya o'rgatuvchi ilovalar, metronom va no'talarni o'rgatuvchi dasturlar 5–7-sinf o'quvchilari uchun qiziqarli va foydali ko'rinishda taqdim etiladi. Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, [2] mobil texnologiyalar yordamida tayyorlangan maxsus musiqiy dars mashg'ulotlari o'quvchilarning nazariy bilimlarini sezilarli darajada oshirgan. Masalan, Turkiyada 6-sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan 8-haftalik tajribada NoteWorks, RhythmCat, GarageBand, KidsPiano kabi mobil ilovalar orqali nota, ritm va bastalash asoslarini o'rgatish an'anaviy guruhga nisbatan test natijalarini yuqori ko'rsatgan. Shuningdek, ushbu ilovalar yordamida o'quvchilarda darsdan tashqari vaqtda mustaqil ishlash istagi, musiqaga qiziqishi hamda darsda faol qatnashish motivatsiyasi ortgani aniqlangan. Bu dalillar shu yoshdagi bolalarda mobil qurilmalar orqali o'yin va o'qitishni uyg'unlashtirish samarali ekanini ko'rsatadi.

Konstruktiv yondashuvga ko'ra, bunday ilovalar o'quvchilarga o'z sur'atida o'rganish va topshiriqlarni takror bajarib, xatolar ustida ishlash imkonini beradi – bu esa individual ta'lim yo'lini yaratadi va har bir o'quvchining ehtiyojiga moslashadi.

Multimedia vositalari integratsiyasi tufayli bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish va hatto interaktiv ishtirok uyg'unlashadi: nota matnini ko'rib, uning jarangini eshitish, ekran orqali orkestr joylashuvini tomosha qilib, tovush balansi ustida ishlash kabilar amalga oshadi.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, [4] bunday multimedia yondashuvi o'quvchilarning bir vaqtning o'zida bir necha qobiliyatlarini rivojlantiradi – masalan, vizual, eshitish va motor ko'nikmalarini birgalikda rag'batlantirib, musiqani chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Multimedia vositalari: Multimedia atamasi musiqa darslarida audio, video, matn, grafik va animatsion materiallarni integratsiyalash orqali o'quvchilarga axborotni boy va qiziqarli tarzda yetkazishni anglatadi. 5–7-sinf o'quvchilari yoshida tasvirlar, videolar va audio yozuvlar orqali musiqiy tushunchalarni o'zlashtirish osonroq kechadi, chunki bu vositalar mavhum tushunchalarni konkret ko'rinishda namoyish etadi. Misol uchun, kompozitorlar hayoti va ijodini matn orqali o'qish bilan birga hujjatli film tomosha qilish yoki audio namunalarni tinglash o'quvchilarda yanada kuchliroq ta'surot qoldiradi va mavzuni tushunishni osonlashtiradi.

NAMM Foundation ma'lumotlariga ko'ra, [6] zamonaviy o'quvchilar bolalikdan kompyuter va multimedia bilan yaxshi tanish bo'lib ulg'aymoqda, shu bois o'qituvchilar ta'lim jarayonida ushbu vositalarni ijodkorona qo'llashi orqali o'quvchilarni faol o'rganishga jalb eta oladilar.

Multimedia ta'limi jarayonida o'quvchilar o'zlari axborot yaratuvchisiga aylansa, yanada samarali o'rganish sodir bo'lishi ta'kidlanadi – masalan, o'quvchilar multimedia loyiha (video klip, ovoz yozish, slayd-taqdimot) tayyorlar ekan, ular rejali ishlash, axborotni saralash va taqdim etish, texnik ko'nikmalarni amalda qo'llash kabi qator ko'nikmalarni egallaydila. Natijada musiqa darslarida mavzular yanada qiziqarli, tushunarli va esda qolarli bo'ladi.

Muhokama. Yuqoridagi natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni 5–7-sinf musiqa darslarida qo'llash katta ijobiy pedagogik samaradorlikka ega bo'lishi mumkin, ammo ularni joriy etishda bir qator omillarni hisobga olish lozim. Avvalo, o'qituvchining roli va pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlash zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, [3] eng zamonaviy texnologiyalar joriy etilgan darslarda ham agar o'qituvchi to'g'ri yondashuvni tanlamasa, kutilgan natijaga erishish qiyin. Masalan, interaktiv doska o'rnatilgan sinfxonada faqat an'anaviy ma'ruza o'qish davom etsa, bu qurilmaning imkoniyatlari ishga solinmagan bo'ladi va dars samaradorligiga ta'sir ko'rsatmaydi. Angela Lee va Yen Huai Jen (2015) [3] olib borgan tadqiqotda interaktiv doskali va oddiy dars usullarini qiyoslab, farzandlarning yutuqlari ko'proq o'qituvchining pedagogik uslubiga bog'liqligi, texnologiya esa faqat qurol ekanini aniqlagan – har ikki holatda ham motivatsiya va o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lishi uchun o'qituvchi bolalarni faol ishtirok etishga jalb qilgan taqdirdagina texnologiya ijobiy natija bergan. Demak, innovatsion texnologiyalarning samarasi bevosita ularni qo'llaydigan pedagogning kompetensiyasi va didaktik yondashuviga bog'liq.

Ikkinchidan, texnologiyani ta'lim mazmuni bilan uyg'unlashtirish masalasi muhimdir. Har bir innovatsion vosita o'ziga xos imkoniyatlarga ega: masalan, AR texnologiyasi vizual tushuntirish uchun qulay bo'lsa, mobil ilova musiqiy mashq va qayta aloqa uchun yaxshi samara beradi. Muhokama jarayonida aniqlanganki, ushbu texnologiyalardan maksimal foyda olish uchun ularni dars mavzusi va maqsadiga mos ravishda tanlash lozim. Nazariy jihatdan, pedagogik mazmun va texnologik bilim uyg'unligi modeliga mos keladi – ya'ni o'qituvchi texnologik vositani musiqiy mazmunni samarali o'rgatishga xizmat qiladigan tarzda integratsiya qilishi zarur. Misol uchun, nota savodini o'rgatishda mobil ilovadagi o'yinlardan foydalanish yaxshi samara bersa, musiqiy asar tahlilida multimedia taqdimot va audio yozuvlar uyg'unligi maqsadga muvofiq. Shuningdek, darsning tuzilishi ham o'zgaradi: innovatsion texnologiyalar qo'llangan darslarda ko'pincha loyiha asosida o'rganish, jamoaviy ishlar va muammoli ta'lim elementlari

kuchayadi. Buni qo'llab-quvvatlash uchun o'qituvchilardan yangicha dars dizayni va vaqtni rejalashtirish ko'nikmalari talab qilinadi.

Uchinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonidagi qiyinchiliklarni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, [4] yangi raqamli yechimlarni qo'llash avval boshda o'quvchi va o'qituvchilardan qo'shimcha tayyorgarlik va moslashuvni talab etadi. Ayrim hollarda texnik nosozliklar yoki foydalanish ko'nikmalarining yetishmasligi dars jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Masalan, barcha o'qituvchilar ham dastlab mobil ilova yoki AT qurilmalaridan foydalanishda o'zini erkin his qilmasligi mumkin – bu esa o'qituvchining texnologiyaga oid malakasini oshirish va doimiy o'rganib borishini taqozo etadi.

Raqamli texnologiyalar bilan bog'liq yana bir xavf – bu diqqatni chalg'ituvchi omillar. Agar dars davomida texnologiya haddan ziyod ko'p elementlarni taklif etsa yoki nazorat qilinmasa, o'quvchilar asosiy mavzudan chalg'ib ketish ehtimoli bor. Shu bois, muhokamadan kelib chiqib tavsiya etiladiki, o'qituvchilar texnologiyadan me'yorida va maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanish strategiyasini ishlab chiqishlari lozim. Masalan, darsning faqat muayyan qismida interaktiv vositalardan foydalanish, boshqa qismida esa an'anaviy musiqiy faoliyat (xor aytish, cholg'u chalish)ni davom ettirish muvozanatni ta'minlashi mumkin.

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida paydo bo'ladigan yangi o'quv imkoniyatlarini ham muhokama qilish lozim. Yuqorida qayd etilganidek, mobil ilovalar o'quvchilarning darsdan tashqari ham musiqa bilan shug'ullanishini rag'batlantiradi.

Muhokama doirasida aniqlanganki, bunday yondashuv o'quvchilarda nafaqat musiqiy malaka, balki raqamli savodxonlik, hamkorlikda ishlash qobiliyati va tanqidiy tafakkur kabi XXI asr ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Demak, innovatsion texnologiyalarni musiqiy ta'limga integratsiyalash nafaqat predmet mazmunini yaxshi o'zlashtirish, balki kompleks kompetensiyalarni rivojlantirish nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega.

Xulosa va tavsiyalar. Olib borilgan nazariy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarining 5–7-sinf musiqa darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish kuchli ilmiy-nazariy asosga ega. Interaktiv doskalar, mobil ilovalar, AR va multimedia vositalari musiqiy ta'lim jarayonini boyitib, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, faolligini kuchaytirishi hamda bilim olishni individuallashtirishi mumkinligi nazariy va amaliy tadqiqotlar orqali tasdiqlangan. Ushbu texnologiyalar ko'rgazmalitashviriy tafakkurni rivojlantirish, ko'p sezgili idrokni shakllantirish va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va ularni "o'quv jarayonining subyekti"ga aylantirishda bu texnologiyalar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, tahlillar ko'rsatdiki, texnologiyalarning samarasi avtomatik tarzda emas, balki ularni o'rinli va pedagogik maqsadga muvofiq qo'llangandagina namoyon bo'ladi. Shunday ekan, musiqa darslarida innovatsion

vositalarni qo'llash zamonaviy ta'lim standartlari talablariga javob beruvchi samarali chora bo'lib, u ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi nazariy jihatdan asoslanadi.

Tavsiyalar: Yuqoridagi xulosalarga tayangan holda, quyidagi amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- O'qituvchilar malakasini oshirish: Musiqa o'qituvchilari uchun muntazam ravishda AKT savodxonligi va innovatsion pedagogika bo'yicha treninglar o'tkazish zarur. Bu ularga yangi texnologiyalardan ijodkorona va samarali foydalanish ko'nikmalarini beradi.

- Moddiy-texnik bazani takomillashtirish: Maktablarni interaktiv doskalar, raqamli pianino va ovoz yozish qurilmalari, AR jihozlari kabi vositalar bilan ta'minlash lozim. Shuningdek, sifatli musiqiy mobil ilovalar va dasturlar jamlanmasini yaratib, o'quvchilarga qonuniy va bepul foydalanish imkoniyatini ta'minlash tavsiya etiladi.

- Integratsiyalashgan dars ishlanmalari: O'quv dasturlarini yangilash jarayonida innovatsion texnologiyalarni qamrab oladigan dars ishlanmalarini ishlab chiqish zarur. Misol uchun, nota savodxonligi mavzusiga interaktiv o'yinlar, xalq musiqa merosini o'rganishga AR ilovalari orqali yondashuv kabi loyihalarni kiritish mumkin. –

- Ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish: Ushbu maqola nazariy dalillarga tayangan holda xulosa chiqargan bo'lsa-da, kelgusida mazkur texnologiyalarning amaliy natijalarini o'rganish uchun mahalliy sharoitda tajribalar o'tkazish tavsiya etiladi. 5–7-sinflar kesimida eksperimental tadqiqotlar olib borilib, innovatsion texnologiyalar o'zlashtirishga, ijodkorlikka va boshqa ko'nikmalarga qancha ta'sir qilishi empirik ravishda aniqlanishi lozim. –

- Metodik qo'llanmalar yaratish: O'qituvchilar va o'quvchilar uchun innovatsion texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha qo'llanmalar, video darslar va onlayn platformalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu resurslar texnologiyadan foydalanishni osonlashtiradi va uning ta'limiy qiymatini tushunishga yordam beradi.

Yuqoridagi tavsiyalar amalga oshirilsa, umumta'lim maktablarining 5–7-sinflarida musiqa darslari zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan boyitilib, yangi sifat bosqichiga ko'tariladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning nafaqat musiqa faniga, balki umuman o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning ijodkor va raqamli madaniyatli shaxslar bo'lib ulg'ayishiga zamin yaratadi. Zamonaviy pedagogikaning talabi ham shundan iboratki, an'anaviy va innovatsion yondashuvlar uyg'unligi orqali har bir o'quvchiga uning imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiluvchi ta'lim muhiti yaratilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Philip Hash "Supporting Music Education: Expanding the Learning Power of Music" Tips for Success is produced by the Music Achievement Council Educator_Tips-ETLPOM.pdf
2. Ali Korkut Uludag, Ugur Kartal Satir "Seeking alternatives in music education: The effects of mobile technologies on students' achievement in basic music theory" August 2023 International Journal of Music Education 43(1)

3. Angela Leea, Yen Huai Jen “Interactive Whiteboard Integration into Music Teaching and Learning: Preschool Children as a Case Study” Global Conference on Contemporary Issues in Education, GLOBE-EDU 2014, 12-14 July 2014, Las Vegas, USA
4. Ewa Parkita “Digital Tools of Universal Music Education” April 2021 [Central European Journal of Educational Research](#) 3(1):60-66
5. https://www.researchgate.net/publication/367948476_Digital_Tools_of_Universal_Music_Education
6. Supporting Music Education: Expanding the Learning Power of Music | NAMM Foundation
7. [Central European Journal of Educational Research](#)
8. [Planning education,building the future | International Institute for Educational Planning](#)

